

“DUNYO ARMIYALARIDA HARBIY KIYIMLARGA QARATILGAN E’TIBOR”

Mamajonov Ibrohim Olimjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Umumqo‘shin fakulteti kursanti Tadqiqotchi:

Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda, rivojlangan mamlakatlar armiyalarining moliyaviy, moddiy ta‘minoti keltirilgan, shu bilan birga Milliy Armiyamizdagi olib borilayotgan jadal islohotlar va kiyim-kechak sohasidagi zamonaviy ishlanmalar hamda harbiylar uchun yaratilgan qulayliklar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kiyim-kechak, anjom-aslaha, moslashuvchanlik, ximoyalanish xususiyati, moslashuvchanlik qobiliyati, jangchi.

Аннотация

В данной статье представлено финансовое обеспечение армий развитых стран в быстро меняющемся мире в условиях глобализации, в то же время стремительные реформы в нашей Национальной Армии и современные разработки в области обмундирования и средств для военнослужащих выделены.

Ключевые слова: одежда, экипировка, приспособленность, защита, приспособленность, воин.

Abstract

This article presents the financial support of the armies of developed countries in the rapidly changing world under the conditions of globalization, at the same time, the rapid reforms in our National Army and modern developments in the field of clothing and facilities for the military are highlighted.

Keywords: clothing, equipment, adaptability, defensive ability, adaptability, warrior

Bugungi tahlikali zamonda dunyo hamjamiyatida armiya va qurolli kuch tuzilmalarining pozitsiyasi juda ham ortib bormoqda. O‘z navbatida rivojlangan mamlakatlarda qurolli kuchlarni zamonaviy qurol-yarog‘, anjom aslaxalar va harbiy hizmatchilar foydalanadigan moddiy vosiyatlar bilan ta‘minlashga bo‘lgan extiyoj kun sayin ortib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlar doirasida esa qurollanish poygalari vujudga kelmoqda. Bu esa o‘sha davlatni asosiy yil davomidagi moliyaviy daromadini qurollanish poygasiga sarflashga olib keladi. Misol tariqasida eng rivojlangan mamlakatlar armiyasining taxminiy o‘rtacha bir yillik

<https://conferencea.org>

xarajatlari Amerika Qo'shma Shtatlarida 610 mlrd \$, Xitoyda 228 mlrd \$, Saudiya Arabistonida 69,4 mlrd \$, Rossiya Federatsiyasida 66,3 mlrd \$ ni tashkil etmoqda. Ushbu mamlakatlardagi bir qator yangidan yangi zamonaviy moddiy va texnik vositalarni yaratilayotgani harbiy xizmatchilar uchun juda ham qulayliklar tug'dirmoqda. Shu asnoda jangchilarning jangovor saloxiyati ham kun sayin ortib borishiga asosiy sabab ro'lini o'ynamoqda.

Rivojlangan davlatlarda o'z armiyasini qudratini va nufuzini oshirish maqsadida "XXI asr jangchisi" dasturi asosida ko'p yillardan beri harbiy-ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar natijasida esa ko'pgina harbiy anjomlar, himoya vositalari, kuzatuv qurilmalari, yangi aloqa vositalari, yangi boshqaruv dasturalari, lazerli masofani o'lchash binokillari, yangi turdagi qurol aslaxalar, yashashni ta'minlash tizimlari va dori-darmonlar ishlab chiqarish tajribalari o'tkazilmoqda.

Mamlakatimizda ham armiya va qurolli kuchlarga bo'lan e'tiborning ortishi bilan o'z navbatida har bir yurt farzandi ruhida ona zamini tinchligi uchun masuliyat tuyg'usi kun sayin yuksalishiga olib kelmoqda. Bu ishlar tizimli ravishda davom etmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz 2016-2017 yildar mobaynidagi tegishli qarorlari doirasida harbiy xizmatchilarni zamonaviy talablarga mos kiyim-kechak buyumlari, aslaxa va anjomlari bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqotlar olib borish, rivojlangan mamlakatlar armiyasini o'rganish va tadbiq etish bo'yicha ko'rsatmalar belgilandi. shunga binoan rivojlangan davlatlar armiyasi o'rganila boshlandi. Ulardagi yaratilgan ust-boshlar va anjom-aslaxalar o'rganilib chiqilib tizimli tahliliy amalga oshirildi. Jumladan harbiy kuch tuzilmalari jihatidan bir qator rivojlangan Rossiya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlardagi yaratilgan ust-bosh dasturlari keng o'rganila boshlandi. Fransiya ishlab chiqardgan "Fantassin a Equipement et Liaisons Integres" darsturi. Germaniyaning IdZ-ES loyihasi (infanterist der Zukunft – kelajak askari) bu dastur asosiy 3 element takomillashtirilgan bo'lib – himoya, aloqa tizimi va qurol ta'siridan ogoh etish dasturi hisoblanadi. bu dasturlarning barachsi JILET (askarning ko'krak qafasini himoya qiluvchi kiyim) ga o'rnatilgan. Angliyaning zamonaviy bo'lgan FIST loyihasi ham shular jumlasidandir.

AQSH ning Future Force Warrior (kelajak kuch jangchisi) loyihasi esa boshqa davlatlardan tashqari ekzoskelet suniy ta'minoti bilan, nanotexnologiya, zirxli himoya nimchalarining takomillashtirilgani bilan farqlanadi. Bu jangovor kiyim-kechaklarni sinovlari esa Iroqdagi jangovor hakatlar davomida sinovdan o'tkazilgan.

Rossiya Federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Universal askar dasturi "RATNIK-3" ning taqdim qilinishi va Suriyadagi jangovor harakatlarda bevosita sinovdan o'tkazilgani va o'zini to'laqonli oqlagani namoyon bo'ldi. Ushbu bir qator eng rivojlangan mamalakatlarning zamonaviy loyihalari kelajak ayni vaqtda hozirgi zamon jangchi askarlari uchun kerak desak to'g'ri bo'ladi. Chunki harbiy xizmatchilarning jangovor shayligini uzliksiz ravishda ushlab

<https://conferencea.org>

turish va ularni sog'ligini asrashda kun mobaynida kiyib yuradigan ust-boshlarining ta'siri katta bo'ladi. Harbiy xizmatchilarning jangovor xarakterlar mobaynida yuzaga keladigan tabiat va atrof muhitning tashqi ta'sirlari doirasida ust-boshlarining kimyoviy mexanik xususiyatlari o'zgarishi natijasida jangchi askarlarni jangovor salohiyatini keskin tushib ketishiga sabab bo'ladi.

Maxsus ust-boshlarning chidamlilik xususiyati ham mana shunday tashqi ta'sir omillariga bardoshlilik bilan farqlanadi. Inson tanasining sog'lig'iga, harbiy xizmatchilarning esa jangovor salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillarning asosiylaridan biri bu harbiy kiyim-kechaklar uchun ishlatiladigan mato tarkibi hisoblanadi. Mato tarkibidagi sintetik tola tarkibi va tabiiy tola tarkibining muozanatlashtirilmaganlari askarlar uchun eng katta noqulayliklarni tug'ilishiga olib keladi. Unga ko'ra havo almashinuvining keskin kamayishi, ob-havoning issiq bo'lgan vaqtlarida kiyimlarni tanaga qattiq yopishib qolishi o'z navbatida inson organizimi uchun kerakli bo'lgan kislorodning to'silib qolishiga sabab bo'ladi. Bu holatni yuzaga kelishi esa askarlarning jangovor salohiyatini yo'qolishiga olib keladi.

Mamlakatimiz mudofaa sanoatida ham ohirgi yillar mobaynida juda katta o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Ushbu rivojlangan mamlakatlarning ilg'or texnologiyalari o'rganilib o'z qo'shinlarimizga tadbiiq qilina boshlandi. Bu sayi harakatlarning amalga oshirilishidan ko'zlangan asosiy maqsad qurolli kuch tuzilmalarimizni tubdan modernizatsiyalashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, harbiy xizmatchilarni eng zamonaviy qurol-yarog', anjom-aslaxa va ust boshlar bilan taminlash bilan birga yurt tinchligini bardavom ushlab turishdan iborat. Hozirgi vaqtda harbiy xizmatchilarning ish faoliyatini va nufuzini oshirish maqsadida bir qator amaliy ishlar boshlanib yuborilgan.

Oxirgi besh yil mobaynida rivojlangan davlat armiyalarini tahlil qilgan holda qurolli kuchlarimiz ust boshlari takomillashtirila boshlandi. Uzliksiz ravishda harbiy xizmatchilarni barcha turdagi kiyim-kechaklari sinovdan o'tkazilib kelinmoqda. Amaliy mashg'ulotlar davomida yaratilayotgan ust-boshlarning taktik xususiyatlari to'laqonli o'rganilmoqda. Yaratilayotgan kiyim-kechaklarning turli xil ob-havo sharoitlarida issiq-sovuqqa chidamlilik, termik jihatdan ustunligi, harorat konstanliga bardoshli bo'la olishi, atmosfera ta'siriga tirishqoqligi va boshqa kimyoviy moddalarning ta'siriga sezilarli darajada ta'sir qila olishi bilan ahamyatli bo'lib kelmoqda.

Zamonaviy kiyimlarning taktik xususiyatlari esa jangchilarning barcha sharoitlarda kiyib yurishga qulayligi, relyef va tabiatning o'zgarishli holatlarida himoyalalanish xususiyati va moslashuvchanligi, yemirilish xususiyati past darajadaliigi va tamirlashga qulay bo'la olishi maqsad qilib olingan. Bunday amaliy ishlarni amalga oshirilayotgani qurolli kuchlarimiz safidagining jangovor salohiyatini yuksalishi bilan birga o'z navbatida ularning nufuzini yanada ortib borishiga sabab bo'lsa, yoshlarimizda esa vatanparvarlik ruhuni shakillanishi va yurt taqdiri uchun daxldorlik tuyg'usini kuchayishiga olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizlik” Toshkent “O‘zbekiston”-2013 yil.
2. “oz.sputniknews-uz.com/20190205/uzbekiston-harbiylar...”
3. “O‘zbekiston: davlat va armiya” Toshkent-2006 yil
4. “gazeta.uz/oz/2018/04/14/mudofaa/”
5. “Armiya - davlat tayanchi, tinchlik kafolati” “Sharq” Toshkent-2005 yil.
6. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” “O‘zbekiston”, NMIU, 2017 yil.
7. “O‘zbekiston Armiyasi” 2020 yil.№2 (22)